

MUAMMOLI OTA-ONALAR BILAN ISHLASH BO'YICHA SINFLAR RAHBARINING TAVSIYALARI

Xallokova Maksudaxon Ergashevna –
Farg'ona VXTXQTUMOI Maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası
katta o'qituvchisi

Ota-onalar farzandlarining maktabdagi o'quv dasturlarini o'rganishlari kerak. Bola oladigan bilim, ko'nikma, malaka, shular asosida fan o'qituvchisi bilan yaqindan aloqa o'rnatish (bu yil ota-ona nimani o'rgatish kerak) Agar ota-onalar biror bir fanga qiziqishmasa, unda bu ota-onaning muammosi hisoblanadi.

O'qituvchining tashkiliy-metodik ishlari, asosan, quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Ota-onalarga bolaning bilim, ko'nikma, malaka darajasini aniqlash imkoniyatini beruvchi soda topshiriqlarni o'rgatish kerak.

Masalan: o'quvchi o'qishni bilmaydi, tez o'qishi kerak. Matematika yaxshi, o'qishni bilmaydi, fizkultura yaxshi.

2. O'qituvchi (fan o'qituvchisi, sinf rahbari) o'quvchining uyiga tashrif buyurib aniq muammolarni nazorat ostiga olish kerak va ularni bartaraf qilishda (mahalla, ota-ona, IIB, prokuratura organlari, hokimiyat qoshida voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi) aniq tashkiliy ishlarni belgilash kerak.

II bob. Muammoli ota-onalar bilan umumiy muammolarni hal qilish.

1. Farzandlarning 8 00 da maktabga yetib kelishi.
2. O'quv formasi (kiyim-kechagi).
3. Boqishning muammolarini aniqlash. **Ovqatlanishiga e'tiborli bo'lish.**
4. Gigiyena-sanitariya holatlarini aniqlash.
5. Jismoniy tarbiya kiyimi – formasi bilan ta'minlanishi.
6. O'quv qurollari bilan ta'minlanishi.
7. Kitob va daftarlarning jildlanganligi.
8. Oiladagi yotadigan joyi (krovat borligi, alohida yotadimi?)
9. Hordiqning shakllarini aniqlash (buvi, buvajonini xabar olishi, ishiga yordam berishi) va hokazolar.

III bob. Bolalarning jismoniy rivojlanishi bo'yicha sinf rahbarlariga tavsiyalar:

1. Fizkultura va sportga jalb qilish (bola yoshligidan musobaqaga qatnashishi, padacha berishi, qatnasholmasa boshqasiga olib borish kerak) va doimiy nazorat qilish.
2. Barcha muammolarni (jamoa bilan chiqishmasligi, sport ustozlari bilan aloqasi va hokazo) aniqlash. Sport bilan shug'ullanishning muntazamligini (doimiyligini) saqlab qolish.

3. Sinfning har bir o'quvchisini fizkultura va sportga qiziqtirib borish (qiziqarli sportchilar haqida qiziqarli ma'lumotlar yetkazish, ular hayotidan videolavhalar namoyish etish, uchrashuvlar tashkil etish).

IV bob. Huquqiy madaniyatini shakllantirish.

1. Oilada huquqiy madaniyatning darajasini aniqlash, ya'ni (alkogolga berilib ketishi, bolani g'ayri qonuniy harakatlarga jalb qilish, 18 yoshgacha tamaki, aroq olib kelishni buyurish mumkin emas) qonunlarini bilish va o'z haq-huquqidan foydalanish.
2. Ota-onalar bilan huquqiy savod bilan ish olib borish (ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat tomonidan ishlab chiqarilgan konsepsiyalar, konstitutsiya, oila bobi, 63-67-moddalar, oila kodeksi, jinoyat kodeksi, tushunchalar berish).
3. Ota-ona va farzandlarining axborot madaniyati.
 1. Internetga aloqadorligini aniqlash.
 2. Telefonomaniya muammosini aniqlash.
 3. Televizor va boshqalarning ta'sirini aniqlash.

O'qituvchining tavsiyalari:

1. Havfli tomonlarini isbotlab berish.
2. Kitobga muhabbatni shakllantirish.
3. Kutubxonalarga a'zo qilish.
4. O'qigan adabiyotlar bo'yicha qiziqarli viktorinalar, savol-javob tashkil etish.